

INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARNING AUTOPEDEGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Odilboyeva Umida Zafarjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

odilboyevaumida96@gmail.com ,

+99897 259 44 76

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari ingliz tili darslarida talabalarning autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Namangan davlat pedagogika instituti Psixologiya yo'nalishi talabalari tanlangan bo'lib, ularda o'z-o'zini o'qitish va kasbiy refleksiyani shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada autopedagogik kompetentlikning talaba akademik o'zlashtirishi (GPA) bilan bog'liqligi statistik korrelyatsiya asosida isbotlangan hamda o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: autopedagogik kompetentlik, ingliz tili, metakognitsiya, o'z-o'zini o'qitish, refleksiya, psixologiya talabalari, akademik o'zlashtirish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АВТОПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические основы развития аутопедагогической компетентности студентов на занятиях по английскому языку в высших учебных заведениях. В качестве объекта исследования были выбраны студенты направления «Психология» Наманганского государственного педагогического института, проанализированы механизмы формирования у них навыков самообразования и профессиональной рефлексии. В статье на основе статистической корреляции доказана взаимосвязь аутопедагогической компетентности с академической успеваемостью студентов (GPA), а также разработаны методические рекомендации по совершенствованию учебного процесса.

Ключевые слова: аутопедагогическая компетентность, английский язык, метакогниция, самообразование, рефлексия, студенты-психологи, академическая успеваемость.

THEORETICAL PRINCIPLES OF ENHANCING STUDENTS' AUTOPEDEGOGICAL COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations for developing the autopedagogical competence of students in English classes at higher education institutions. The study focuses on first-year Psychology students at Namangan State Pedagogical Institute, analyzing mechanisms for fostering self-education and professional

reflection. Through statistical correlation, the article demonstrates the link between autopedagogical competence and academic performance (GPA). Furthermore, methodological recommendations are proposed to enhance the educational process by integrating self-directed learning strategies.

Keywords: *autopedagogical competence, English language, metacognition, self-directed learning, reflection, psychology students, academic performance.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan, bo'lajak mutaxassislarning xorijiy tillarni o'zlashtirish sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Zero, zamonaviy mutaxassis nafaqat o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki jahon ilmiy axborot resurslaridan mustaqil foydalana olish ko'nikmasini ham egallashi lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5117-sonli Qarori muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda xorijiy tillarni o'rgatishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, sohada zamonaviy o'qitish metodikalarini joriy etish hamda mutaxassislarning mustaqil bilim olish darajasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash, ayniqsa, bo'lajak pedagog va psixologlarda autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Autopedagogik kompetentlik talabaga nafaqat dars jarayonida, balki butun umri davomida (lifelong-learning) ingliz tilini mustaqil takomillashtirib borish imkonini beradi. Biroq, ta'lim amaliyotida ko'pincha talabalar tayyor ma'lumotlarni qabul qilishga odatlanib qolishgan, bu esa ularda mustaqil o'rganish va reflektiv tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada yuqoridagi qaror talabalaridan kelib chiqqan holda, ingliz tili darslarida talabalarining autopedagogik kompetentligini faollashtirishning nazariy asoslari va uning samaradorligi tahlil qilinadi.

Hozirda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi talabalarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra, ularni mustaqil bilim olishga va o'z-o'zini pedagogik jihatdan takomillashtirishga o'rgatishdan iboratdir. Aynan autopedagogik

kompetentlik (o'z-o'ziga ustozlik qilish) bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining raqobatbardoshligini ta'minlovchi fundamental omil bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida autopedagogik salohiyatning roli alohida ahamiyatga ega, chunki chet tilini mukammal o'zlashtirish doimiy mustaqil faoliyat, reflektiv tafakkur va turli ta'lim resurslarini samarali qo'llashni talab qiladi. Talabalarda autopedagogik salohiyatni rivojlantirish nazariy asoslari kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv faoliyat, mustaqil ta'lim va zamonaviy pedagogik metodlar kabi pedagogik printsiplarni o'z ichiga oladi.

Autopedagogika pedagogikaning o'z-o'zini boshqarish, o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va takomillashtirishga yo'naltirilgan yo'nalishi bo'lib, talabanning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Autopedagogik kompetentlik esa talabanning o'z ta'lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, o'z bilim va ko'nikmalarini baholash, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, ingliz tili ta'limi jarayoni talabanning autopedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida qaraladi.

Mazkur maqola ingliz tili darslarida talabalarning autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda autopedagogik kompetentlik tushunchasi, uning mustaqil ta'limdagi roli va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ushbu nazariy asoslar orqali talabalar ta'lim samaradorligini oshirish va o'zini doimiy takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Autopedagogik kompetentlik - bu talabanning o'z o'quv faoliyatini sub'yekt sifatida anglagan holda, uni pedagogik qonuniyatlar asosida mustaqil tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish qobiliyatidir. Ingliz tili ta'limida bu tushuncha nafaqat til o'rganish, balki "o'z-o'zini o'qituvchi" sifatida shakllanishni anglatadi. Autopedagogik kompetentlikni tadqiq etish bugungi kunda pedagogik akmeologiya va kasbiy ta'lim psixologiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fenomenning nazariy asoslari bir necha tizimli yondashuvlar doirasida shakllangan.

Autopedagogik kompetentlik tushunchasining fundamental asoslari A.A.Bazikova, N.V. Kuzmina, D.Downing, R.Watson, J.Steers, B. Wison, B.Wilson,

O.M.Shiyan va R.M.Yusupova kabi olimlarning o'z tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarida auto (autopedagogik, autodidaktik, autopsixologik) kompetentlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ular autopedagogik kompetentlikni shaxsning o'z kasbiy faoliyatini mustaqil loyihalash, korreksiya qilish va takomillashtirish qobiliyati sifatida talqin etganlar. M.Csikszentmihalyi, J. Heronlar autopedagogik kompetentlikning psixologik xususiyatlari, H.Chang, M.Duncanlar ingliz tili ta'limida autoetnografik metodlardan foydalanish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, autopedagogik kompetentlik tushunchasi shunchaki bilimlar majmuasi emas, balki subyektning "Men-konsepsiyasi" asosida o'z professional darajasini "acme" (cho'qqi) sari yo'naltiruvchi ichki dinamik tizim hisoblanadi.

Ingliz tili darslarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mustaqil o'rganish strategiyalarini shakllantirishda J. Flavell va D. Little qarashlari alohida o'rin tutadi. D. Little yondashuviga ko'ra, til o'rganuvchining avtonomiyasi uning o'z o'quv jarayoni ustidan kognitiv nazoratni amalga oshirishiga tayanadi deb takidlaydi.

P. Benson esa autopedagogik kompetentlikning mezonlarini "o'rganishni boshqarish" (control over learning management) sifatida tavsiflab, uni lingvistik kompetensiya bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi.

Respublikamizda xususan, M.M.Parpiyeva, B.X. Xodjayev va H.U.Raximovlar tomonidan bo'lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishida o'z-o'zini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari atroflicha o'rganilgan. M.M.Parpiyeva ta'rificha, "Autopedagogik kompetentlik - bo'lajak o'qituvchining o'z pedagogik nuqsonlarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha kasbiy va shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisidir". O'zini o'zi tarbiyalash shaxsning kamol topishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Biroq, zamonaviy lingvodidaktika (til o'qitish metodikasi) kontekstida ushbu kompetensiyani raqamli resurslar va kommunikativ modellar asosida rivojlantirish masalasi hali ham kompleks tadqiqotlarni talab etadi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha umumiy nazariy bazalar mavjud bo'lsa-da, aynan ingliz tili darslarining o'ziga xos

xususiyatlari (interaktivlik, autentiklik, media-savodxonlik) bilan bog'liq holda ushbu jarayonni optimallashtirish metodikasi yetarli darajada tahlil qilinmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tili darslarida talabalarning autopedagogik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini tekshirish maqsadida Namangan davlat pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabalari ishtirokida pedagogik eksperiment ishlari o'tkazildi. Tadqiqotda jami 30 nafar talaba ishtirok etdi (nazorat va tajriba guruhleri).

O'tkazilgan diagnostika natijalariga ko'ra, talabalarning autopedagogik kompetentlik darajasi dastlabki bosqichda asosan past va o'rta ko'rsatkichlarni tashkil etdi. Tajriba guruhida qo'llanilgan **"Self-Directed Learning"** (SDL) va **"Reflexive Journaling"** metodikasi natijasida dinamik o'sish kuzatildi.

Natijalarni quyidagi mezonlar asosida tizimlashtirish mumkin:

Mezonlar (30 ta talaba kesimida)	Eksperimentdan oldin (miqdor/%)	Eksperimentdan keyin (miqdor/%)	O'sish koeffitsiyenti
<i>Mustaqil maqsad qo'yish (Goal setting)</i>	6 ta (20%)	18 ta (60%)	+40%
<i>O'z-o'zini monitoring qilish</i>	9 ta (30%)	22 ta (73%)	+43%
<i>Lingvistik refleksiyaning mavjudligi</i>	5 ta (17%)	15 ta (50%)	+33%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Namangan davlat pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabalari o'zlarining kasbiy kompetensiyalaridan (psixologik tahlil ko'nikmalaridan) ingliz tili o'rganish jarayonida "metousul" sifatida foydalana boshlaganlar. Bu esa til o'rganishdagi

to'siqlarni (language barriers) psixologik jihatdan ongli ravishda yengib o'tishga xizmat qilgan.

Olingan natijalar Namangan davlat pedagogika institutining pedagogik muhitida autopedagogik kompetentlikni shakllantirishning quyidagi xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi:

- 1-kurs talabalari bo'lganligi sababli, ularda akademik moslashuv davri kechmoqda. Ingliz tili darslarida autopedagogik vositalarning (masalan, *Self-assessment rubrics*) qo'llanilishi ularning nafaqat til o'rganish, balki umumiy o'quv faoliyatini tizimlashtirishga yordam berdi;

- talabalar har bir dars yakunida o'zlarining intellektual o'sishini psixologik aspektda tahlil qildilar (masalan, "Bugungi darsda qaysi kognitiv usul men uchun samarali bo'ldi?"). Bu jarayon O.M.Shiyanning akmeologik nazariyasidagi "kasbiy o'z-o'zini anglash" bosqichiga to'la mos keladi;

- talabalarining autopedagogik kompetentligi darajasi va ularning ingliz tilini o'zlashtirish ko'rsatkichlari (GPA) o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ijobiy korrelyatsiya ($r=0.72$) aniqlandi.

Muhokama davomida aniqlandiki, Namangan davlat pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabalari boshqa yo'nalishlarga nisbatan introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini anglash)ga moyilroq. Bu xususiyat ingliz tili darslarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun "tayyor fundament" vazifasini o'taydi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, talabalarga o'z o'rganish uslublarini (*Visual, Auditory, Kinesthetic*) aniqlash bo'yicha psixologik testlar berilishi va shu asosda til o'rganish strategiyasini tuzish (*Individual Learning Path*) eng yuqori natija berdi.

Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, ingliz tili darslarida ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zini o'zi anglash, shaxsning jamiyat hayotiga faol integratsiya qilishi, ijtimoiy rollarni samarali egallash va bajarish, o'ziga va o'zgalarga nisbatan ongli munosabatni qaror topishi muhim ahamiyatga ega. Shunga muvofiq ravishda tadqiqot uchun tanlab olingan sinaluvchilar guruhida "Autopedagogik kompetentlik shkalasi" metodikasi (R.M.Yusupova va O.M.Shiyan tomonidan ishlab chiqilgan) o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy tahlillar va Namangan davlat pedagogika instituti Psixologiya yo'nalishi talabalari ishtirokidagi eksperimental tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi: (a) Autopedagogik kompetentlik - zamonaviy ta'lim paradigmasining asos bo'lib, ingliz tili darslarida ushbu kompetensiyani rivojlantirish talabani passiv axborot qabul qiluvchidan faol subyektga aylantiradi. Bu, ayniqsa, psixologiya yo'nalishi talabalari uchun o'z kasbiy refleksiyasini xorijiy til muhitida sinab ko'rish imkoniyatini beradi; (b) Statistik bog'liqlikning tasdiqlanishi, tadqiqot davomida aniqlangan yuqori korrelyatsiya koeffitsiyenti ($r=0.72$) talabaning o'z o'quv faoliyatini boshqarish qobiliyati uning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlariga (GPA) bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi; (v) Metakognitiv o'sish esa, eksperiment natijasida talabalarda "o'rganishni-o'rganish" strategiyasi shakllandi. Ular til o'rganishdagi qiyinchiliklarni nafaqat lingvistik, balki psixologik-metodik muammo sifatida ko'rib, ularni mustaqil bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- darslarda talabalarning o'z-o'zini baholash varaqalari (self-assessment rubrics) va "o'rganish kundaliklari" (learning logs)dan tizimli foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Bu talabaga o'z dinamikasini vizual kuzatish imkonini beradi;
- talabalarga beriladigan mustaqil ishlar shunchaki ma'lumot to'plash emas, balki "muammo - tahlil - yechim – refleksiya" zanjiri asosida loyihalashtirilishi zarur;
- bo'lajak psixologlar uchun ingliz tili darslarini ularning mutaxassislik fanlari bilan bog'lab, "Muvaffaqiyatli o'rganuvchi - psixolog" mavzusidagi interaktiv mashg'ulotlarni ko'paytirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli Qarori.
2. Базилова А.А. Аутопсихологическая компетентность как компонент учебно-воспитательного процесса в музыкальных учебных заведениях: дис. ... канд. пед. наук / А.А. Базилова. – Тамбов, 2002. – 170 с

3. Долгих Н.Н. Педагогические условия обеспечения непрерывности становления профессиональной компетентности преподавателя изобразительного искусства: автореф. дисс. ... канд. пед. наук / Н.Н. Долгих. – Томск, 2005. – 21 с.
4. Долгих Н.Н. Влияние образовательной технологии на становление специальной компетентности художника- педагога : автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Томск, 2016. – 44 с.
5. Кузьмина Н.В., Софьина В.Н. Акмеологическая концепция развития профессиональной компетентности в вузе. – СПб.: Изд-во НУ «Центр стратегических исследований», 2012. – 200 с
6. Parpiyeva M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda autopedagogik kompetentlikni shakllantirish metodikasi (5112100- "Texnologik ta'lim" ta'lim yo'nalishi misolida). Ped. fan. dok....diss.avtoref. – Chirchiq, 2022. – 24 b.
7. Юсупова Р.М. Формирование аутопедагогической компетентности бакалавра педагогического образования в инновационной среде вуза: на материале иностранного языка: автореф. дисс. ... кан. пед. наук. – Москва, 2015.
8. Шиян О.М. Аутопедагогическая компетентность учителя // Педагогика. – 1999. – №1. –С. 63.
9. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования – М.: Издательство Московского психолого-социального института. – Воронеж: Издательство НПО «МОДЕК», 2003. – 480 с.;